

O'ZBEK TILIDA OTLARDA SINONIMLIK SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA
TASNIFI

Xudoyberdiyeva Farangiz Dilshod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti.

Mirxanova Gulandom Rustamovna

BuxDPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15606097>

Annotatsiya. Ushbu mohiyatida otlarning sinonimlik hodisasi yoritilishi nazarda tutilgan maqolada, asosan, nutqimizdagi otlarda uchraydigan sinonimlik hodisasi, ularning semantik xususiyatlari ustida fikr yuritiladi. Umuman olganda sinonimlik hodisasi barcha mustaqil so'zlarda va hattoki nomustaqlil so'z turkumlarida ham uchraydi. Shu o'rinda mustaqil so'z turkumlaridan eng yirik ko'lamdagisi, turlanish xususiyatiga ega, yasaladi va yasalish uchun asos vazifasini bajaruvchi ot so'z turkumiga to'xtaladigan bo'lsak, bu turkumda ham sinonimlik hodisasi keng qamrovga ega. Nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi bunday hodisalar tilimizda juda ko'plab uchraydi. Masalan: sinonimlik, omonimlik, antonimlik, paronimlik shular jumlasidandir.

Kalit so'zlar: Semantik xususiyat, dominanta, emotsiyal bo'yozdorlik.

Аннотация. В данной статье, целью которой пролить свет на явление синонимии имен существительных, основное внимание уделяется явлению синонимии имен существительных в нашей речи и их семантическим свойствам. В целом явление синонимии встречается во всех самостоятельных словах и даже в зависимых словосочетаниях. В данном случае, если обратиться к категории имени существительного, которая является самой крупной самостоятельной категорией слов, обладает свойством диверсификации, является образованной и служит основой для образования, то в этой категории также широко распространено явление синонимии. Подобные явления, повышающие эффективность речи, весьма распространены в нашем языке. Например: синонимия, омонимия, антонимия, паронимия и т. д.

Ключевые слова: Семантический признак, доминанта, эмоциональная окраска.

Abstract. In this article, which is intended to shed light on the phenomenon of synonymy of nouns, we mainly consider the phenomenon of synonymy in nouns in our speech, their semantic properties. In general, the phenomenon of synonymy occurs in all independent words and even in independent word classes. In this case, if we focus on the noun word class, which is the largest of the independent word classes, has the property of diversification, is formed and serves as the basis

for formation, the phenomenon of synonymy is also widespread in this class. Such phenomena that increase the expressiveness of speech are found in our language in large numbers. For example: synonymy, homonymy, antonymy, paronymy are among them.

Keywords: Semantic feature, dominant, emotional coloring.

Insoniyat yaralibdiki, borliqdagi narsa, hodisalarni tafakkuri orqali idrok qilib, uning nomini atash uchun ma'lum bir tushunchalarni qo'llab o'z nutqini boyitib kelgan. Tildagi so'zlarning salmog'i oshib borgach, ularni ma'lum bir guruhlarga ajratish ehtiyoji tug'ilgan. Bu haqida qadimga faylasuflar o'z qarashlarini bayon qilganlar. Miloddan avvalgi IV asrda qadimgi yunon faylasufi, Aristotel (Arastu) so'z turkumlarini 7ga, miloddan avvalgi V asrda hind tilshunoslaridan Panini (III-II asrda Panining grammatika va grammatic kategoriyalar haqida fikr yuritganligi ma'lum) va Yaska 4ga (ot, fe'l, ko'makchi va yuklama) shaklida tasniflagan . Bunda fe'l harakatni ifodalovchi, ot esa substansiya-ifodalovchi, yuklama va ko'makchi so'z o'rta sidagi munosabatni, shuningdek, insonning o'z fikriga munosabatini ifodalovchi hodisa sifatida berilgan) ga bo'lganlar. Hindlar to'rtta so'z turkumini farqlaganlar: ot, fe'l, old ko'makchi va yuklama. Hind tilshunosligida ot predmet ifodalovchi, fe'l esa harakat, holat ifodalovchi so'z sifatida berilgan.

Turkiy tilshunoslikda morfologiyaga oid qarashlar arab tilshunosligi ta'sirida IX-XI asrlarda shakllana boshlagan. O'rta Osiyo xalqlari uchun bebaho sanalgan ilk qomusshunos olim sifatida tan olingan Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarida so'z turkumlariga ham to'xtalib o'tadi, ulardagi yasalish hodisasini ham ilmiy asoslab misollar bilan fikrini dalillab beradi. Mahmud Qoshg'ariy ham o'z davrida 2 yirik turkumni farqlab beradi. Bularni predmet bildiruvchi so'zlarni-otlar, harakat nildiruvchi so'zlarni esa fe'llar guruhi ostida birlashtiradi.

Hozirgi zamonaviy tilshunosligimizda ham morfologiyaning asosini shu ikki yirik guruh tashkil qiladi. Hozirda biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan mulohazalar ham ot so'z turkumidagi sinonimlar va ularning semantik xususiyati haqida. Narsa-predmet, shaxs otlari va nomlari ma'nosini bildiruvchi, kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'luvchi va gapda istalgan gap bo'lagi sifatida ishtirok etuvchi so'zlarni-ot so'z turkumi ostida birlashtiramiz. Nutqimizni ta'sirchan qiluvchi vositalarning barchasi bu turkumdag'i so'zlarda faol qo'llanadi.

1. Omonimlik hodisasiga misol qilib "Burun" so'zini oladigan bo'lsak: *1. burun tana a'zosi, nafas olish vazifasini bajaradi. Bu uning otlik xususiyati. 2. Burun geografik atama bo'lib, quruqlikning dengizga tomon turtib chiqqan qismi. Bunda ham otlik ma'nosida. 3. Burun ilagarilari avvallari singari ma'nosi bilan ravish so'z turkumini ifodalab keladi.*

2. Antonimlik hodisasiga misol qilib quydagi so‘zlarni olishimiz mumkin. *O‘g‘il-qiz jinslar o‘rtasida, tun-kun vaqtlar o‘rtasida, bosh-oyoq tana qismlari o‘rtasidagi zidlik hodiasi.*

3. Paronimlik hodisasiga misol qilib: *sud-sut, asr-asir, tanbur-tambur kabilar.*

4. Sinonimlik hodisasiga misol qilib ko‘plab so‘zlarni keltirishimiz mumkin. Bunga misol qilib otning ma’no turlari tasnifiga oid guruhlar orqali fikrimizni dalillashimiz mumkin. *Shaxs otlarida: qarindosh, urug‘, tug‘ishgan, jigar, bovur, jigarband, jigargo ‘sha, qondosh, qardosh, aymoq, xesh; narsa otlarida: bayroq, yalov, alam, tug‘, baydoq; o‘rin-joy otlari: sayilgoh, sayrgoh, sayrbog‘, tomoshabog‘; faoliyat-jarayon otlarida: mardlik, jasurlik, qo‘rqm aslik, erlik, dovyuraklik, botirlik...*

Nutqimizda sinonimlar so‘z ko‘pavayergan sari. Tilshunos olimlar bu hodisan ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishga kirishishdi. Dunyo tilshunos olimlari qatorida o‘zbek tilshunosligida ham bu borasida ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirildi. O‘zbek tilidagi sinonimlar muammosini monografik aspektida tadqiq qilgan B.Doniyorov asosli tarzda ta’kidlaganlar “Sinonimlar nafaqat semantikaning konnotativ aspekti bo‘yicha faqrlanadi, balki aniq bir hollarda ijtimoiy tomondan anglangan tarixiy jihatdan saqlangan kontekstdagi denotativ ma’nosini bo‘yicha ham faqrlanadi”. Sinonimlik hodisasi barcha so‘z turkumlarida kuzatiladigan hodisadir. Bu hodisada bosh, (asos) ma’no atrofida unga o‘xhash ma’noli so‘zlar jamlanadi. Sinonim so‘zlar qaysi uslubda qo‘llanishi, ematsional bo‘yoqdorlik bor yoki yo‘q bo‘lishiga qarab tasniflanadi. Masalan: *azob, aziyat, jabr, jafo, zulm, qynoq, iztirob, uqubat, zahmat, sitam* kabi sinonim so‘zlar qatorida azob leksemasi bosh (dominanta) ma’no kasb etadi va barcha uslublarda qo‘llanadi. Jafo, iztirob, sitam, uqubat kabi so‘zlarda emotsionallik yuqori darajada ma’no ifodalaydi. Bu so‘zlardan badiiy adabiyotda yozuvchilar ichki kechinmalarini ochib berishda, asarni mazmundor qilib yaratishda keng foydalanadi. Masalan: betakror misralari bilan barchamizning ko‘nglimizdan o‘rin olgan shoir Muhammad Yusuf (Muhabbat) she’ridan olingan bir band orqali namuna keltirib o‘taman,

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,

Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.

Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,

Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku.

Bunda shoir muhabbatni go‘zal iztirob deya ta’riflayapti. Sinonimlarni faqrlovchi yana bir asosiy tomoni uning qaysi uslubda qo‘llanilishidir. Masalan: iltimos, iltijo, o‘tinch, zor, tavallo sinonimlar qatorida iltimos so‘zi uslubiy betaraf bo‘lib, barchaga birday tushunarli ko‘proq og‘zaki nutqda keng qo‘llandi. Iltijo, o‘tinch, tavallo so‘zları esa badiiy uslubga xos bo‘lib, ulardan asarlarda she’rlarda foydalaniladi.

Bunga o‘xhash misralar badiiy adabiyotimizda son-sanoqsiz uchraydi. Masalan: *ashula, kuy, navo, ohang, xonish, qo’shiq, nola* bular ham bir sinonimlik qatorini hosil qiladi. Ma’nodosh so‘zlar qo’shiq so‘zi atrofida jamlanadi. Bundan emotsionallik ma’nosi navo, kuy, ohang, xonish nolaga qarab darajalanib o‘sib boradi. Eng yuqori pog‘onada hissiylik bo‘yicha nola so‘zi turadi.

Buning sababi nola so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratsak, bu leksema tojik tilidan olingan bo‘lib qayg‘uni ifodalab, baland tovush bilan yig‘lash ma’nosini anglatadigan noli fe’lining nol hozirgi zamon asosiga (-a) qo’shimchasini qo’shib hosil qilingan bo‘lib, qayg‘uni ifodalovchi baland tovush bilan yig‘lash ma’nosini anglatadi. Bu holatni musiqa sohasiga quyidagicha tegishli qismi bor, ashula aytganda, biror so‘zni yoki so‘zning biror qismini ovozni cho‘zib tebratib xonish qilinishidir. Bunday holatda uni tinglagan tomoshabin beextiyor qo’shiqqa berilib ketadi. Yuqoridagi *ashula* so‘zida esa hissiy bo‘yoqdorlik mavjud emas. Sinonimlar yana bir xususiyati bilan bir-biridan ajralib turadi. Bu ular ifodalayotgan ma’noning ijobiy yoki salbiyligidir. Masalan: er, yostiqdosh, umrdosh, rafiq, tanmahram, o‘rtoq, xo‘jayin, zavj, shahvar, boy bu yerda er leksemasida salbiylik mavjud. Umryo‘ldosh, tanmahram, so‘zlarida esa ijobiy ma’no kasb etgan. Shu tariqa sinonimlik hodisani oddiy emas, tilshunoslikning muhim bir ajralmas qismi ekanligi ayon bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирханова, Г. (2024). СИНОНИМ СҮЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИ. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(1), 76-80.
2. Мирханова, Г. (2022). СИНОНИМ СҮЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172-178.
3. Rustamovna, M. G. (2020). Rus tilshunosligida sinonim sozlar oquv lugatlarining tadrijiy rivojlanishi. *Oriental Art and Culture*, (III), 326-329.
4. Rustamovna, M. G. (2024). Linguistic Form of Terms in Explanatory Dictionaries of the Uzbek Language. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(6), 589-591.
5. Mirxanova, G. (2021). Sinonim so'zlar o'quv lug'atining megaqurilishi: Sinonim so'zlar o'quv lug'atining megaqurilishi. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 1(1).
6. Mirxanova, G. R. (2022). Stages of Enhancement of Synonym Dictionaries. *International Journal of World Languages*, 2(1).
7. Rustamovna, M. G. (2023). Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language.

8. Mirxanova, G. R. (2021). EMERGENCE AND STAGE OF DEVELOPMENT OF FIRST SYNONYM DICTIONARIES. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(2), 96-105.
9. Mirxanova, G. R. (2023). SYNTACTIC ANALYSIS OF WORKS OF ART IN ELEMENTARY SCHOOL TEXTBOOKS: METHODS AND APPLICATIONS.
10. Мирханова, Г. Р., & Сафарова, О. М. (2019). УЧЕБНЫЕ СЛОВАРИ–СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ. *Вестник магистратуры*, (6-5), 41.
11. Rustamovna, M. G. Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek.
12. Rustamovna, M. G. EMERGENCE AND STAGE OF DEVELOPMENT OF FIRST SYNONYM DICTIONARIES. *EMERGENCE*, 5, 24-2021.
13. DICTIONARIES, S. a teacher of the faculty of Primary education, BSU. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 96.
14. Rustamovna, M. G. (2020). THE IMPORTANCE OF LEXICOGRAPHY IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION. В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с., 165.
15. Rustamovna, M. G. (2025). KONSEPTUAL YONDASHUV ASOSIDA TERMIN TIZIMINI SHAKLLANTIRISH. *Hamkor konferensiyalar*, 1(15), 20-22.
16. Jabborova, M., & Safoyeva, S. (2024). THE IMAGE OF THE SUN IN EPIC WORKS. *Solution of social problems in management and economy*, 3(4), 165-168.
17. Valiyevna, J. M. (2024). The Artistic Perfection of Cosmic Images in the Works of Yusuf Khos Hajib and Navoi. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 153-158.
18. Jabborova, M. (2024). MUMTOZ SHE'RIYATDA UCHRAYDIGAN OY, YULDUZ, QUYOSH TIMSOLLARINING SHAXS QIYOFASIDA TIMSOLLANISHI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(1), 48-52.
19. SHE'RIYATIDA, M. J. Z., & TIMSOLLARMUSHTARAKLIGI, I. I. V. K. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS.–2022. T, 2(18), 209-211.
20. Eshqulova, G., Musurmonova, M., & Axmedova, D. B. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darslarida nutqiy ko 'nikmalarni rivojlantiruvchi o 'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 72-75.
21. Qizi, S. M. A., & Axmedova, D. B. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIM EGALLASHGA DOIR QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK ASARLARNING O 'RNI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 43-46.

22. Axmedova, D. (2021). СЕМАНТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА СИСТЕМА И МОДЕЛЬ. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
23. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурухлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
24. Akhmedova, D. B. (2020). SET OF SEMANTIC TAGS FOR UZBEK LANGUAGE UNITS: CONSTANTS AND OPERATOR CLASSIFIER. *Theoretical & Applied Science*, (2), 177-179.
25. Bahodirovna, D. A. (2020). SEMANTIC TAG CATEGORY IN CORPUS LINGUISTICS: EXPERIENCE AND ANALYSIS. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 152-160.